



AYRIM XORIJIY DAVLATLARDA EKOLOGIYA SOHASIDAGI JINOIY JAVOBGARLIK MASALALARI

Akramova Marjona Oripovna

Toshkent davlat yuridik universiteti

70420114-Jinoyat qonunchiligini qo'llash nazariyasi

va amaliyoti yo'nalishi magistranti

marjonaoripovna11@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11207663>

Annotatsiya: Hozirgi kunda dunyoning barcha mintaqalarida ekologik vaziyat dolzarbligicha qolayotgan bir sharoitda ekologik jinoyatlar uchun jinoiy javobgarlikni kuchaytirish, ayrim ekologik huquqbuzarliklarga jinoiy tus berish ekologik barqarorlikning kafolatlaridan biri ekanligini inobatga olgan holda, ushbu tezisda xorijiy davlatlarning ekologik qonunchiligi tahlil qilingan. Shuningdek, rivojlangan mamlakatlarning jinoyat huquqida ekologik jinoyatlarning tavsifi va ular uchun belgilangan jinoiy jazoning xususiyatlari muhokama qilingan.

Kalit so'zlar: Eco tashkilotlar, Ekologik jinoyatlar, Ekologik qonunchilik, Yetkazilgan zarar, Ekologik barqarorlik, Ekologik madaniyat.

Hammamizga ma'lumki, uzoq yillar davomida jahon hamjamiyati oldidagi dolzarb muammolardan biri bu – ekologik vaziyatning jiddiylashishi bo'lib qolmoqda. Shu sababli dunyo mamlakatlarida ekologik qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha yangi-yangi qonun hujjatlari qabul qilinmoqda.

Aytish joizki, Xalqaro tashkilotlar (Birlashgan Millatlar Tashkilotining Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha tashkiloti (YUNESKO), Xalqaro dengiz tashkiloti (IMO), Atom energiyasi bo'yicha xalqaro agentlik (MAGATE), Jahon oziq-ovqat tashkiloti (FAO), Yevropa Ittifoqi (YI), Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH), YuNEP - BMTning atrof muhit bo'yicha dasturi, Markaziy Osiyo mintaqasida juda faol harakat yurgazayotgan regional jamg'arma - xalqaro "Ekosan" jamg'armasi va boshqalar)¹ tomonidan ekologiya sohasida bir qancha shartnoma va konvensiyalar qabul qilingan bo'lib, milliy ekologik qonunchilik ularga zid bo'lmasligi lozim.

Jahonning ko'plab mamlakatlari, jumladan, bizning davlatimiz ham xalqaro ekologik barqarorlikni o'zida aks etgan konvensiyalarga qo'shilgan. Bular jumlasiga:

- Ozon qatlamini himoya qilish bo'yicha Vena Konvensiyasi (18/05/1993 y.);

¹Eco Tashkilotlar. <https://prezi.com/p/8hyrlbpuhsq/eco-tashkilotlar/>





- Ozon qatlamini buzadigan moddalar bo'yicha Monreal protokoli (18/05/1993 y.);

- London Ozon qatlamini buzadigan moddalar bo'yicha Monreal protokoliga o'zgartirishlar kiritish (01/05/1998 y.);

- Transchegaraviy suv oqimlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish bo'yicha BMTning YTK Konvensiyasi;

- Tabiiy muhitga ta'sir etuvchi harbiy yoki boshqa dushmanona maqsadlardagi vositalaridan foydalanilishini taqiqlanishiga oid Konvensiya (05/26/1993 y.);

- Iqlim o'zgarishi bo'yicha Asosiy Konvensiya (20/06/1993) (Kyoto protokoli, 1999 y.);

- Jiddiy qurg'oqchilik va yoki cho'llanishga uchragan mamlakatlarda, ayniqsa, Afrikada cho'llanishga qarshi kurash Konvensiyasi (31/08/1995 y.);

- Xavfli chiqindilarning transchegaraviy harakatlarini nazorat qilish va ularni yo'q qilish bo'yicha Bazel Konvensiyasi (12/22/1995 y.);

- Biologik xilma-xillik to'g'risidagi Konvensiya (06/05/1995 y.);

- Butunjahon madaniy va tabiiy merosini himoya qilish Konvensiyasi (22.12.1995 y.);

- Yo'qolib borish xavfidagi yovvoyi fauna va floraning xalqaro savdosi bo'yicha Konvensiyalar (25/04/1997 y.);

- Ko'chmanchi yovvoyi hayvonot turlarini saqlash Konvensiyasi (01/05/1998 y.)


- Suv-botqoq hududlari bo'yicha asosan, qushlarning yashash joylari sifatida xalqaro ahamiyatga molik Ramsar Konvensiyasi (08/30/2001 y.).²

- Parijda iqlim o'zgarishi to'g'risidagi shartnoma (19/04/2018 y.) kabilarni misol qilsak, maqsadga muvofiqdir.

Nafaqat xalqaro hujjatlarda, balkim har bir davlatning Jinoyat kodeksida ekologik jinoyatlar uchun javobgarlik masalalari va jazo choralari mustahkamlab qo'yilgan. Quyida ayrim mamlakatlardagi ekologik jinoiy javobgarlik turlari va tavsifini ko'rib chiqamiz.

Qozog'iston Respublikasi Jinoyat kodeksining 13-bobi "Atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha jinoiy huquqbuzarliklar" deb nomlanib, bu turdagi jinoyatlarga: xo'jalik yoki boshqa faoliyat uchun ekologik talablarni buzish (324-modda); ekologik potentsiali xavfli kimyoviy yoki biologik moddalar bilan ishlashda ekologik talablarni buzish (325-modda); mikrobiologik yoki boshqa

² Ekologiya huquqi: Darslik / J.T. Xolmo'minov, N.B. Shoimov, O.A. Kamalov, O.J. Xolmo'minov. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2014. – 235 b.





biologik vositalar yoki zararli moddalar bilan ishlashda ekologik talablarni buzish (326-modda); o'simliklar kasalliklari va zararkunandalariga qarshi kurashish uchun belgilangan veterinariya qoidalarini yoki qoidalarini buzish (327-modda); suvning ifloslanishi, tiqilib qolishi yoki kamayishi (328-modda); atmosferaning ifloslanishi (329-modda); dengizning ifloslanishi (330-modda); Qozog'iston Respublikasining kontinental shelfi va Qozog'iston Respublikasining eksklyusiv iqtisodiy zonasi to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish (331-modda); yerga zarar yetkazish (332-modda); yer qa'rini muhofaza qilish va undan foydalanish qoidalarini buzish (333-modda); yer qa'ridan o'zboshimchalik bilan foydalanish (334-modda); baliq zahiralarini muhozafa etish qoidalarini buzish (336-modda); noqonuniy ov qilish (337-modda); hayvonot dunyosini muhofaza qilish qoidalarini buzish (338-modda); Noyob va yo'qolib ketish xavfi ostida turgan, shuningdek taqiqlangan o'simliklar yoki hayvonlar turlari, ularning qismlari yoki hosilalari bilan qonunga xilof ravishda muomala qilish (339-modda); daraxt va butalarni qonunga xilof ravishda kesish, nobud qilish yoki shikastlash (340-modda); o'rmonlarni yo'q qilish yoki shikastlash (341-modda); alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni muhofaza etish qoidalarini buzish (342-modda); atrof-muhitga etkazilgan zararni bartaraf etish choralarini ko'rmaslik (343-modda) kiradi. Bu turdagi jinoyatlarning obyekti - atrof-muhit, tabiat boyliklari: yer, yer osti boyliklari, suv, atmosfera havosi, o'rmon, hayvonot va o'simlik dunyosi, shuningdek, inson hayoti bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlar.

Obyektiv tomondan - jinoyatlar harakat yoki harakatsizlik oqibatida sodir etilib, turli oqibatlarni (moddiy tarkibli jinoyat) keltirib chiqaradi. Bularga: jinoyat oqibatida jiddiy zarar yoki katta miqdordagi zarar - 325, 326, 328, 334, 335, 337 va 342-moddalarda atrof-muhitga yetkazilgan zararni bartaraf etish yoki tabiiy resurslarning iste'mol xususiyatlarini tiklash uchun zarur bo'lgan xarajatlarning yuz oylik hisob-kitob ko'rsatkichidan ortiq miqdordagi pul ko'rinishida ifodalanadi. 340-moddada esa atrof-muhitga yetkazilgan zararni bartaraf etish yoki tabiiy resurslarning iste'mol xususiyatlarini tiklash uchun zarur bo'lgan xarajatlarning ellik oylik hisob-kitob ko'rsatkichidan ortiq miqdordagi pul ko'rinishida ifodalansa, qolgan ekologik jinoyatlarda oylik hisob-kitob ko'rsatkichining ikki yuz baravaridan ortiq miqdordagi zarar tushuniladi. O'ta yirik va ayniqsa ko'p miqdordagi zarar - 324, 325, 326, 328, 329, 330, 332, 333, 334, 337, 339, 342 va 343- moddalar uchun yetkazilgan zararni bartaraf etish yoki tabiiy resurslarning iste'mol xususiyatlarini tiklash uchun zarur bo'lgan xarajatlarning yigirma ming oylik hisob-kitob ko'rsatkichidan ortiq





miqdordagi pul ko'inishida, boshqa ekologik jinoyatlar uchun zarar miqdori oylik hisob-kitob ko'rsatkichining to'rt ming baravaridan ortiq miqdorda ifodalanilgan. Shuningdek, obyektiv tomondan ba'zi ekologik jinoyatlarda boshqa og'ir oqibatlar - ommaviy kasalliklar, infeksiya, nurlanish yoki odamlarning zaharlanishi, aholi salomatligi va atrof-muhitning yomonlashishi, texnogen yoki ekologik ofatning boshlanishi, favqulodda ekologik vaziyatning yuzaga kelishi namoyon bo'lganda jinoiy javobgarlik keltirib chiqaradi.³

Ekologik jinoyatlar subyekti - Qozog'iston Respublikasi Jinoyat kodeksining 15-moddasiga ko'ra, o'n olti yoshga to'lgan, aqli raso shaxs deb belgilab qo'yilgan. Jinoiy javobgarlikka faqat jismoniy shaxslar tortilishini inobatga oladigan bo'lsak, "jismoniy" so'zi tushirib qoldirilganligiga guvoh bo'lishimiz mumkin.

Subyektiv tomondan bu jinoyatlar qasddan yoki ehtiyotsizlik oqibatida sodir etiladi.

Shunday mamlakatlar borki, ularda sanoat yuqori darajada rivojlangan bo'lsa-da, ekologik barqarorligi, tozalik darajasiga ko'ra dunyo hamjamiyatini lol qoldirib kelmoqda. Ulardan biri Germaniya bo'lib, qat'iy ekologik qoidalarga egaligi bilan ajralib turadi.

Germaniya Federativ Respublikasi Jinoyat Kodeksining 29-bobida belgilangan ekologik jinoyatlar uchun javobgarlikning o'ziga xosligi mavjud bo'lib, u har bir ekologik jinoyatni sodir etishga urinish ham oqibat kelib chiqishidan qat'iy nazar, jinoiy javobgarlikka sabab bo'lishi belgilan berilgan. Shuningdek, ekologik jinoyatlar turli tarkibli jinoyatlar hisoblanib, ba'zi jinoyatlar uchun qilmish oqibat keltirib chiqarishi zarurligi belgilab qo'yilgan bo'lsa (moddiy tarkibli jinoyat), boshqalarida esa qilmishning o'zi jinoiy javobgarlikka sabab bo'lib, oqibatning kelib chiqishi og'irroq jazo qo'llanilishiga sabab bo'ladi. Germaniya Federativ Respublikasi Jinoyat Kodeksida: suvning ifloslanishi (324); tuproqning ifloslanishi (324a); havoning ifloslanishi (325); shovqin, tebranish va ionlashtirilmaydigan nurlanishni keltirib chiqarish (325a); ruxsatsiz chiqindilarni boshqarish (326); obyektlarni ruxsatsiz ishlatish (yadro obyektlaridan noqonuniy foydalanish, egalik qilish) (327); radioaktiv moddalar va boshqa xavfli moddalar va tovarlar bilan ruxsatsiz ishlash (328); qo'riqlanadigan hududlarni xavf ostiga qo'yish (329); zaharlarni chiqarish orqali jiddiy xavf tug'dirish (330a) uchun jinoiy javobgarlik belgilab qo'yilgan. Germaniya qonunchiligiga ko'ra, barcha jinoyatlar uchun subyekt yoshi - o'n

³Qozog'iston Respublikasi Jinoyat kodeksi 2024.

https://continentonline.com/Document/?doc_id=31575252#pos=558;-102





to'rt yoshga to'lgan shaxs, shuningdek, ushbu jinoyatlar uchun qasddan sodir etilgan bo'lsa, jarima yoki 5 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi, ehtiyotsizlik oqibatida sodir etilgan bo'lsa, jarima va 3 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish kabi sanksiyalar nazarda tutilgan. Ushbu davlat kodeksida ekologik jinoyatlardan birontasini sodir etgan shaxs o'z ishidan faol (haqiqatdan ham) pushaymon bo'lsa, zararni qoplasa, javobgarlikdan ozod qilinishi alohida norma sifatida 330b-moddada belgilangan. Shu bilan bir qatorda, ekologik jinoyatni sodir etish uchun tayyorlangan yoki foydalanilgan narsa va huquqbuzarlik obyektlarini musodara qilish JK 330c-moddasida o'z aksini topgan.⁴

Ekologik qonunchilikni yana bir davlat - Yaponiya misolida ko'rib chiqadigan bo'lsak, Yaponiya hukumati milliy yoki tabiiy bog'lar sifatida belgilangan hududlarni, xavf ostida bo'lgan o'simlik va hayvonot dunyosini himoya qilishga asosiy harakatlarni qaratgan. Mamlakatda 1972-yilda "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida" gi qonun, 1993-yilda esa atrof-muhitni asrashning asosini yaratgan, iqtisodiy faoliyat va atrof-muhit o'rtasidagi muvozanatni saqlash zarurligi masalalariga doir qoidalarni o'zida mujassam etgan "Atrof-muhit to'g'risida" gi qonun qabul qilindi. Shuningdek, Yaponiya hayvonot va o'simlik dunyosini asrash va yo'qolib ketish xavfi ostida bo'lgan turlarni saqlab qolish uchun yashash muhitini muhofaza qilish, ovni tartibga solish, noqonuniy ravishda hayvonlarning o'ldirilishini oldini olishda va shu kabi maqsadlarni amalga oshirishda "Yovvoyi tabiatni muhofaza qilish tizimi va ovchilik to'g'risida" gi, "Yo'qolib ketish xavfi ostida bo'lgan yovvoyi hayvonot va o'simlik dunyosini saqlash to'g'risida" gi qonunlarni qo'llaydi. 1963-yil davlatda ovni tartibga soluvchi qonun qabul qilinib, ushbu qonunning maqsadi qilib "qushlar va sutemizuvchilarni himoya qilish, ko'paytirish, yovvoyi tabiatni muhofaza qilish loyihalarini ishlab chiqish, ovni nazorat qilish, zararkunandalarga qarshi kurashish" belgilandi. Ov qilish huquqini beruvchi litsenziya joriy qilinib, faqat qonun bilan belgilangan turlarni ovlashga ruxsat etildi.

Yaponiyaning katta qismi o'rmonlardan iborat bo'lganligi sababli, o'rmonlardan samarali foydalanish, o'rmon o'simliklarining maqsadsiz yo'q qilinishiga yo'l qo'ymaslik, foydalanishga yaroqsiz deb topilgan o'rmonlar o'rniga yangilarini tiklash uchun davlat katta mablag' ajratadi. Shuningdek, davlatda o'simliklarni asrashga qaratilgan "Tabiiy bog'lar to'g'risida" gi qonun, "Kururtlar to'g'risida" gi qonunlar qabul qilingan. Shuni alohida ta'kidlab o'tish

⁴ German Criminal Code (Strafgesetzbuch – StGB)

https://www.gesetze-im-internet.de/englisch_stgb/englisch_stgb.html





kerakki, yaponiyada o'simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilishga qaratilgan hududlar turli ko'rinishlarda ask etadi, jumladan, davlat qo'riqxonasi, tabiiy bog'lar, dam olish maskanlari, kurortlar. Ushbu hududlarning vazifasi tabiiy va ekologik ahamiyatga ega, milliy boylik hisoblanmish hayvonot va o'simlik dunyosini muhofaza qilishdan iboratdir. Ammo ba'zi ov turlarining bosimlari, yashash joylarining buzilishi yoki yo'q qilinishi va zararli qishloq xo'jaligi kimyoviy moddalari tufayli hali ham ba'zi hayvon va o'simlik turlari tahdid ostida qolmoqda. Shunga qaramay, hozirda Yaponiya hududida 28ta milliy bog' va 55ta yarim milliy bog' mavjud. Bog'larning barchasi yapon ma'muriyatining tasarrufi ostida.

Ushbu davlatda ekologik qonunchilikni buzganlik, ekologik huquqbuzarliklarning ko'pchiligi uchun ma'muriy jazo choralari qo'llaniladi. Chunki mamlakatda aholining ekologik ongi va madaniyati yuqori bo'lganligi sababli ekologik sanksiyalarning kuchaytirilishi talab etilmaydi. Yaponiyaning Jinoyat Kodeksida ham faqatgina suv va undan foydalanish qoidalarini buzganlik uchun jinoiy javobgarlik to'g'ridan-to'g'ri belgilangan. Jumladan, JK 123-moddasida: Suvdan foydalanish va boshqarish uchun 2 yil muddatga ozodlikdan mahrum qilish yoki ikki ming iyendan ortiq jarima belgilangan bo'lsa, ichimlik suvi bilan bog'liq Ichimlik suvini ifloslantirish (142-modda); Suv ta'minotining ifloslanishi (143modda); Ichimlik suvini zararli moddalar bilan ifloslantirish (144-modda); Ichimlik suvining ifloslanishi (odam o'limiga yoki kasallanishiga sabab bo'lsa) (145-modda) kabi jinoyatlar uchun turli miqdordagi jarima hamda 7 yil muddatgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi qo'llaniladi.⁵

Xulosa

O'rganishlar natijasida ushbu tadqiqot mavzusi bo'yicha quyidagi xulosalarga kelindi:

- sanoat jadal rivojlangan mamlakatlarda, misol uchun, AQSh, Angliya, Germaniyada ekologik barqarorlikni ta'minlashning asosiy omili bu - ularda shunday jazo choralari mavjudki, agar ma'lum korxona (zavod) atrof-muhitni nazorat qiladigan vazirlik yoki idoralarning ko'rsatmasiga bo'ysunmasa, bu korxona batamom tugatiladi. Shunday ekan, mamlakatimizda ham tabiatning, jumladan, havoning tozaligini ta'minlash uchun nazoratni kuchaytirilishi lozim.

- dunyoning ko'plab mamlakatlarida suv, jumladan, ichimlik suvining tanqisligini inobatga olgan holsa, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 203-moddasida nazarda tutilgan "Suv yoki suv havzalaridan foydalanish

⁵Penal Code.Japan.1907. <https://ihl-databases.icrc.org/en/national-practice/penal-code-1907-2006>





shartlarini buzish”⁶ uchun jinoiy javobgarlikni kuchaytirish maqsadga muvofiqdir.

- Qozog‘iston Respublikasi Jinoyat kodeksida ekologik jinoyatlar natijasida kelib chiquvchi “boshqa og‘ir oqibatlar” tushunchasi ta‘rifi mustahkamlab qo‘yilganligini inobatga olsak, bizning jinoyat kodeksimizga ham ushbu atamaning kiritilishi lozimligi muhimdir.

- ekologik vaziyatni yaxshilash uchun nafaqat davlat, balkim fuqarolar ham mas‘ulligidan kelib chiqadigan bo‘lsak, AQSh, Germaniya, Angliya, Fransiya, Yaponiya, Shveysariya, Italiya, Xitoy, Janubiy Koreya kabi rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribalariga e‘tibor beradigan bo‘lsak, ularda birinchi galdagi vazifa sifatida ekologik-huquqiy ta‘lim va tarbiyaga alohida e‘tibor berilganligi diqqatga sazovordir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi [2023-yil 1-sentabrgacha bo‘lgan o‘zgartirish va qo‘shimchalari bilan] - T.: “Yuridik adabiyotlar publish”, 2023 y. - 584b.
2. Qozog‘iston Respublikasi Jinoyat kodeksi. 2024.
3. German Criminal Code (Strafgesetzbuch – StGB) https://www.gesetze-im-internet.de/englisch_stgb/englisch_stgb.html
4. Penal Code of Japan. 1907. <https://ihl-databases.icrc.org/en/national-practice/penal-code-1907-2006>
5. Ekologiya huquqi: Darslik / J.T. Xolmo‘minov, N.B. Shoimov, O.A. Kamalov, O.J. Xolmo‘minov. – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2014. – 235 b.
6. Xolmo‘minov J.T. Ekologiya va ekologiya huquqi fanlarini o‘qitishni takomillashtirish masalalari // Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi – yosh olimlar ilmiy tadqiqotlarini yuksaltirish asosi. – T., 2011.
7. Eco Tashkilotlar. <https://prezi.com/p/8hyrlbpuhsq/eco-tashkilotlar/>

⁶ O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi [2023-yil 1-sentabrgacha bo‘lgan o‘zgartirish va qo‘shimchalari bilan] - T.: “Yuridik adabiyotlar publish”, 2023 y. - 584b.

